

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Himoyaga
Kafedra mudiri

« _____ »

« ____ » _____ 2014 y.

**BAKALAVR MALAKAVIY BITIRUV
ISHI**

Mavzu:

“ZiyoNet” tarmog’i doirasida elektron lug’at ishlab chiqish

(O'zbek/rus/ingliz)

Bitiruvchi	_____	Rajabov Sh. B.
	(imzo)	
Rahbar:	_____	Saidaliyev G'.G'
	(imzo)	
Taqrizchi	_____	_____
	(imzo)	(f. i. o)
HFX bo'yicha maslahatchi	_____	_____
	(imzo)	(f. i. o)

Toshkent-2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKASION TEXNOLOGIYALAR DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Fakultet: Kompyuter injiniring
Kafedra: Axborot texnologiyalari
Yo'nalish (mutaxassislik): Informatika va axborot texnologiyalari

«TASDIQLAYMAN»
Kafeda mudiri _____
«_____» _____ 2014 y.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishga

TOPSHIRIQ

Rajabov Sherzod Bahtiyorovich
(familiya, ismi, otasining ismi)

1. BMI mavzusi: “ZiyoNet” tarmog’i doirasida elektron lug’at ishlab chiqish (O’zbek/rus/ingliz)
 2. Universitet 19.04.2014 yildagi № 254-15 qarori bilan tasdiqlangan
 3. Ishni to’liq bajarish uchun berilgan vaqt _____
 4. Ishning boshlang’ich ma’lumotlari: Amaliyot materiallari
 5. Xisob tushuntirish matni mundarijasi (ishni bajarishdagi masalalar ro’yxati): ____
- Kirish. 1. Jamiyatning rivojlanishida dasturiy ta’minot vositalarining o’rni
2. Web sayt ishlab chiqish vositalari, 3. “ZIYONET” tarmog’i doirasida elektron
lug’at ishlab chiqishni loyihalash 4. Hayot faoliyati havfsizligi 5. Xulosa.
Grafik materiallar ro’yxati: Prezentatsiya materiallari, jadvallar _____
7. Topshiriq berilgan kun: 22.03.2014

Rahbar _____
(imzo)

Topshiriqni oldim _____
(imzo)

8. BMI ishining har bir bo'limida bajariladigan ishlarga maslaxatlar

Bo'lim	Rahbar F.I.O	Imzo vaqt	
		Topshiriq berdi	Topshiriq oldi
Asosiy qism	Saidaliyev G'.G'		
HFX			

9. Ishni bajarish grafigi.

T.R.	Ish qismlarining nomi	Bajarish muddati	Raxbar (maslaxatchi) Belgisi
1.	Kirish.		
2.	Jamiyatning rivojlanishida dasturiy ta'minot vositalarining o'rni		
3.	Web sayt ishlab chiqish vositalari		
4.	“ZIYONET” tarmog'i doirasida elektron lug'at ishlab chiqishni loyihalash		
6.	Hayot faoliyati havfsizligi		
7.	Xulosa		

Bitiruvchi _____
(imzo)

« _____ » _____ 2014y.

Rahbar _____
(imzo)

« _____ » _____ 2014y.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadi “ZiyoNet” tarmog’i doirasida o’zbek, rus va ingliz tillarida elektron lug’at ishlab chiqishga qaratilgan.

O’zbekcha - Inglizcha lug’atda jami 27,141 ta so’z, Inglizcha - O’zbekcha lug’atda esa jami 14,426 ta so’z bor. O’zbekcha – ruscha lug’atda 3000 ta so’z bor.

Elektron lug’atni ishlab chiqishda PHP, Javascript senariylar tili, HTML, CSS, rasmlarni qayta ishlash uchun Adobe PhotoShop dasturidan va ma’lumotlar bazasi sifatida MySQLdan foydalanildi.

Целью данной выпускной квалификационной работы является создание электронного узбекского, русского и английского словаря в рамках “ZiyoNet”.

В узбекско-английском словаре имеется 27,141слов, в английско-узбекском словаре имеется 14,426 слов. В узбекско-русском словаре имеется 3000 слов.

В разработке электронного словаря были использованы языки программирования PHP, язык сценариев Javascript, HTML, CSS, Adobe PhotoShop и в качестве базы данных MySQL.

The purpose of this final qualifying work to provide an electronic Uzbek, Russian and English dictionary under "ZiyoNet".

In the Uzbek-English dictionary has 27.141 words in English-Uzbek dictionary has 14,426 words. In the Uzbek-Russian Dictionary has 3000 words.

In developing electronic dictionary programming languages PHP, a scripting language Javascript, HTML, CSS, Adobe PhotoShop and as a database MySQL has been used.

MUNDARIJA

KIRISH	6
1. JAMIYATNING RIVOJLANISHIDA DASTURIY	
TA'MINOT VOSITALARINING O'RNI	9
1.1. Mamlakatimizda dasturiy ta'minot vositalariga bo'lgan talab ...	9
1.2. Avtomatlashtirilgan tizimlarning sohalarda qo'llanilishi	11
1.3. Masalaning qo'yilishi.....	16
2. WEB SAYT ISHLAB CHIQISH VOSITALARI	17
2.1. PHP dasturlash tilining rivojlanishi	17
2.2. PHP dasturlash tilining afzalliklari	19
2.3. Web sayt stillari	30
3. "ZIYONET" TARMOG'I DOIRASIDA ELEKTRON	
LUG'AT ISHLAB CHIQISHNI LOYIHALASH	35
3.1. Dasturchiga qo'llanma	35
3.2. Foydalanuvchiga qo'llanma.....	44
4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	46
4.1. Ishlab chiqarishda xodimlar salomatligiga zarar etishi va ish beruvchi masuliyati	47
4.2. Ishlovchilarning hayot faoliyati havfsizligiga doir huquqlarini ruyobga chiqarishdagi kafolatlari	50
4.3. Jarohatlanish va kasb kasalliklarini o'rganish usullari	53
XULOSA	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	59
ILOVA	61

KIRISH

"Axborot asri" deb atalayotgan bugungi davrda zamonaviy sohalar va ishlab chiqarish tarmoqlarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimlarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada, ayniqsa, eksport qilinadigan mahsulotlar tarkibini va umuman, tashqi savdo aylanmasini yanada diversifikatsiya qilish alohida o'rin tutadi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ham davlat va jamiyat qurilishi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash g'oyasi ilgari surilgan edi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda mahalliy dasturiy mahsulotlar sanoatini kompleks ravishda rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan bugungi globallashuv sharoitida mazkur sohaning ilg'or yutuqlarini barcha tarmoq va jabhalarga keng joriy etish mamlakatimizning kelgusi ravnaqida muhim omil hisoblanadi. Zero, axborot texnologiyalari bozorining zarur tarkibiy qismi bo'lgan dasturiy mahsulotlar sanoati milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirishda, raqobatda ustuvorlikka erishishda, valyuta tushumlarining ko'payishida, import o'rnini bosuvchi milliy mahsulotlar ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Dunyo amaliyotiga nazar salsak, dasturiy ta'minot sohasi hisobiga yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishgan Hindiston, Irlandiya, Xitoy va boshqa ko'plab davlatlarda softver sanoati milliy iqtisodiyotning innovatsion tarkibiy qismiga aylanganini ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda softver sanoatining har tomonlama sifatli rivojlanishi uchun axborotlashtirish sohasini tartibga soluvchi mukammal huquqiy baza yaratildi. "Aloqa to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Mualliflik huquqi va

turdosh huquqlar to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlar, qonun osti hujjatlari shular jumlasidandir.

Darhaqiqat, AKTning muhim tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy dastur ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Jumladan, qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilab kelinmoqda. Axborot va kompyuter texnologiyalari sohasiga o'qitish hamda dasturiy vositalarni realizatsiya qilish xizmatlarini ko'rsatuvchilar uchun qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etish bo'yicha normalar bir necha yillar davomida amal qilib kelmoqda. Oxirgi besh yil mobaynida dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan korxonalar, boshqa mikrofirma va kichik korxonalarga nisbatan yagona soliq to'lovini to'lashda imtiyozlar berilgani ularning ish samaradorligini oshirishda asqotmoqda.

Davlatimiz rahbarining matbuotda e'lon qilingan 2013 yil 20 sentabrdagi PQ-2042-son "Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada yana bir muhim qadam bo'ldi.

Mazkur qarorda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, AKT uchun xalqaro standartlarga mos dasturiy ta'minot vositalarini respublikada ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, sifatli, raqobatbardosh dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish yuzasidan mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, ularning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda yanada kengroq tarqalishiga ko'maklashish maqsadida qator qulaylik va ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Xususan, dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiqaruvchilarga qator soliq imtiyozlarining berilishi va shu munosabat bilan bo'shaydigan mablag'larning Milliy reyestrda kiritilgan dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiqaruvchilar xodimlarini rag'batlantirish, moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga yo'naltirilishi soha rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchisini Milliy reestrda chiqarish bu haqda qaror qabul qilingan kundan boshlab bir kun muddat ichida amalga oshiriladi.

Milliy reestrda chiqarilgan yuridik shaxslar, Milliy reestrda agarda o'z dasturiy ta'minot vositalarini ishlab chiqish, joriy qilish va sotishdan olgan daromadlari o'tgan yilga nisbatan sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorini tashkil etsa, Milliy reestrda chiqarilgan yildan keyingi kalendar yilida qayta kiritilishi mumkin.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida yuqoridagilardan kelib chiqqan xohda yosh dasturchilar portalini ishlab chiqish masalasi ko'rilgan. Bu portal orqali yosh dasturchilar o'zlari tuzgan dasturlarni namoyish etishlashlari va dasturlash tillarini o'rganishlari mumkin bo'ladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadi "ZiyoNet" tarmog'i doirasida o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron lug'at ishlab chiqishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rtta bob, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

Birinchi bob jamiyatning rivojlanishida dasturiy ta'minot vositalarining o'rni haqida bo'lib, unda mamlakatimizda dasturiy ta'minot vositalariga bo'lgan talab, avtomatlashtirilgan timsimlarning sohalarda qo'llanilishi va masalaning qo'yilishi berilgan.

Ikkinchi bob web sayt ishlab chiqish vositalari haqida bo'lib, unda PHP dasturlash tilining rivojlanishi, PHP dasturlash tilining afzalliklari, web sayt stillari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Uchinchi bob "ZIYONET" tarmog'i doirasida elektron lug'at ishlab chiqishni loyihalash, web dasturchiga qo'llanma va foydalanuvchiga qo'llanmalardan iborat.

To'rtinchi bobda hayot faoliyati xavfsizligi keltirilgan.

I. JAMIYATNING RIVOJLANISHIDA DASTURIY TA'MINOT VOSITALARINING O'RNI

1.1. MAMLALATIMIZDA DASTURIY TA'MINOT VOSITALARIGA BO'LGAN TALAB

Jamiyatining xozirgi bosqichi rivojini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'tgan shu qisqa davr ichida bu texnologiyalarning o'zi shiddatli rivojlanish bosqichidan o'tmoqda. Ayniqsa so'ngi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, mexnat unimdorligini o'stirish, maxsulot sifatini oshirish, axolining xarid talabini qondirish, ishlab chiqarish, tarmoqlarini ayniqsa, yelektronika, asbobsozlik, xisoblash texnikasi, aloqa vositalari ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifasini yechish talab qilmoqda. Bularning hammasini o'z navbatida axborotlashtirishning ulkan imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Axborotlashtirish zamonaviy dunyo taraqqiyotining yeng muxim yo'nalishlaridan biri bo'lib, jaxon fan texnikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida yerishilgan yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Axborotlar ko'lamining to'xtovsiz oshib borayotgani yangi asrimizning o'ziga xos xususiyatlaridandir.

Bugungi kunda axborot resurslari, axborot banklari, axborot biznesi, axborot xavfsizligi kabi axborotlashgan jamiyatga xos bo'lgan yangi tushunchalar paydo bo'ldi va ular doimiy ishlatilib yuriladigan so'zlar qatoriga kirib bormoqda. Jaxondagi barcha ilg'or mamlakatlar an'anaviy turlari qatori axborot industriasini rivojlantirish va uning maxsulotlatidan foydalanishni mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri deb qarashmoqda. Shu jumladan, respublikaniz raxbariyati xam mamlakatni axborotlashtirish, xalq xo'jaligining barcha soxalariga yangi axborot texnolagiyalarini joriy yetish va jamiyatning barcha qatlamlarini ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rnatish ishlarini keng ko'lamda olib bormoqda. Oxirgi bir necha yillar davomida qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar jamiyatni axborotlashtirish soxasida xam

ilg'or mamlakatlardan ortda qolmaslik yo'lida olib borilayotgan katta xajmdagi tashkiliy va ommaviy ishlardan dalolat beradi. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy yetishni rivojlantirishning Prezidentimiz farmonida ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlardan biri ushbu jarayonni xuquqiy-me'yoriy asoslarni takomillashtirishdir. Bugungi kunga kelib ushbu yo'nalishda ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Keyingi davrda respublika raxbariyati bu qonunlarning amalda ishlashi katta e'tibor bilan qarashmoqda. "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy yetishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 167 sonli qarorlari qabul qilindi. Ularda elektron raqamli imzo to'g'risidagi, qonunni amalda tadbiqiga oid, kompyuter xavfsizligiga bo'ladigan zamonaviy taxdidlar, xavfsizlikni ta'minlash borasidagi xalqaro tajribalarni o'rganish, kompyuter insidentlariga tezkor munosabat bildiruvchi xizmat bo'linmasi faoliyati to'g'risidagi masalalar xal yetilgan. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining №256 sonli "Axborotlashtirish sohasida normativ huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Oxirgi qabul qilingan bu qarorlar davlat axborot resurslarini shakllantirish tartibi, axborot xavfsizligi ta'minlash, davlat axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, davlat organining rasmiy saytiga qo'yiladigan asosiy talablar, axborot resurslarini yaratish, yekspertizadan o'tkazish va foydalanish talablarini belgilaydi.

Ma'lumki bu qabul qilingan barcha hujjatlar O'zbekiston Respublikasida axborotlashtirishning ilmiy tizmlari barpo yetilishni iqtisodiyotga va jamiyatning xar bir a'zosi xayotiga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalar joriy yetilishi uchun shart sharoitlarni ta'minlaydi, jaxon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasini ishiradi.

1.2. AVTOMATLASHTIRILGAN TISIMLARNING SOHALARDA QO`LLANILISHI

Axborot tizimini ishlab chiqishdan maqsad — tashkiliy loyixalashtirish, texnologik va xokazo jixatlarini xisobga olgan xolda tizim faoliyatining samaradorligini oshirishdir.

O`rganilayotgan fan soxasini aks yettiruvchi xam umumiy, xam ayrim xususiyatlarga yega bo`lgan tizimning ko`plab tushuncha va ta`riflari mavjud.

Umumiy xolatda tizim, deganda ular orasidagi va ularning xususiyatlari o`rtasidagi aloqalar majmuiga yega bo`lgan, ya`ni bir-biriga chambarchas bog`langan qismlardan iborat butun bir Obektlar majmuasi tushuniladi. Bunday ta`rifdagi tizimga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: detallar va tutashtiruvchi qurilmalardan yig`ilgan mashina detallarining butun majmuini tashkil yetuvchi tirik organizm; turli resurslar, bir-biri bilan bog`langan ko`plab ishlab chiqarish jarayonlari va kishilar jamoalari yaxlitligida yuzaga kelgan korxonalar va xokazo. Bunday xollarda Obektlar (tismalar) yagona tizim sifatida ishlaydi, ya`ni xar bir Obekt, kenja tizimlar umumiy tizim oldidagi yagona maqsad uchun xarakat qiladi.

«Tizim»ni aniqlashga quyidagi atamalar kiradi: «Obektlar», «aloqalar», «xususiyatlar».

Obektlar — tizimning bir bo`lagi yoki komponentlari bo`lib, jismoniy, matematik o`zgaruvchan tenglamalar, qoida va qonunlar, texnologik jarayonlar, axborot jarayonlari, ishlab chiqarish bo`linmalari kabi ko`plab cheklanmagan qismlarga yega.

Xususiyatlar — bu Obektning sifatini ifodalovchi parametrlardir. Xususiyat tizimning ma`lum bir o`lchamga yega Obektlarini bittalab miqdoriy jixatdan bayon yetish imkonini beradi.

Obektlarning xususiyatlari tizim xarakati natijasida o`zgarishi mumkin.

Aloqalar Obektlar va ularning xususiyatlarini tizim jarayonida yagona yaxlitlikka birlashtiradi. Bunda barcha tizim yelementlarining kenja tizimlari va

tizimlar o`rtasida alohida bo`lishi nazarda tutiladi. Ayrim umumiy qonuniyatlar, qoidalar yoki tamoyillar bilan birlashuvchilar o`rtasida aloqaning mavjud bo`lishi tizimning asosiy tushunchasi sanaladi. Boshqalar bilan biror-bir aloqaga yega bo`lmagan yelement ko`rib chiqilayotgan tizimga kirmaydi. Tizimning xususiyatlari quyidagilar sanaladi: yelementlar murakkabligi, maqsadga qaratilganligi, turli - tumanligi hamda ular tabiati, tarkiblashganligi, bulinishligidir.

Axborot tizimlari

Tizimlar tarkibi hamda asosiy maqsadlariga farqlanadi. Tashkiliy murakkablik tizimning asosiy xususiyati sanaladi va u yelementlar o`rtasidagi o`zaro aloqalar (o`zaro xarakatlar) miqdori bilan aniqlanadi. Yelementlar o`rtasidagi chatishib, qo`shilib ketgan o`zaro aloqalar shunday tuzilganki, u birorta parametr aloqasining o`zgarishita olib keladi.

Faqat tizimga tegishli tavsiflarni aniqlaydi. Umuman olganda, tizim uni tashkil yetuvchi yelementlardan boshqacharoq tavsiflarga yega bo`libgina qolmay, balki uning barcha qismlaridan sifat jixatidan farqanadi. Shuningdek yelementlar yega bo`lmagan boshqa vazifalarni xam bajarish xususiyatiga yega.

Tizim butunligining o`ziga xosligi bilan aniqlanadigan yangi xususiyatlarning paydo bo`lishi ba`zan yemerjentlik (inglizcha «yemergent» — yuzaga keluvchi, paydo buluvchi) deb ataladi. Tizimlarni qismlarga, ayniqsa o`zi tarkib topadigan yelementlarga bo`lganda bunday vazifalar yoki tavsiflar o`z-o`zidan yo`q bo`ladi.

Maqsadga qaratilganlik. Tizim umumiy xususiyatga yega, ya`ni u umumiy maqsadga yerishishga xarakat qilishga qaratilgan. Tizimning maqsadga yo`naltirganligini ifodalovchi barcha yelementlar uchun umumiy bo`lgan o`zaro aloqalarning maqsadli `oidalari maksadning mavjudligini belgilaydi.

Tizimning tarkiblashganligi — bu tizimning aloxida yelementlari va ularning tashki muxit bilan o`zaro xarakati o`rtasidagi ichki aloqalarning doimiy tarkibidir. Tizim tarkibi — uning faoliyati samaradorligini ko`p jixatdan belgilovchi muxim tavsiflardan biri sanaladi.

Tizimning bo`linishi — bu uning maqsadlar va vazifalarga javob beruvchi ma`lum belgilar buyicha ajratilgan yelementlar yoki bir qator kenja tizimlardan

tuzilganligini anglatadi. Kenja tizimlar bunday ajratilishning asosini tashkil yetib, bunda yelementlar o`rtasidagi aloqalar ko`prok, kenja tizimlar o`rtasida yesa kamroq bo`ladi.

Tizim tushunchasi shu ma`noda nisbiyki, tizim yelementining o`zi xam murakkab tizim bo`lishi mumkin. Biror belgi bo`yicha ajratilgan tizim o`ziga nisbatan yuqori darajadagi tizim yelementi bo`lishi mumkin.

Tashqi muxit. “Tizim” tushunchasi tizimga kiruvchi bir qator yelementlarni cheklaydi: shartli ravishda cheklangan chegara o`rganadi, undan tashqaridagi yelementlar yesa ushbu tizimga kirmay qoladi. Bundan anglashiladiki, tizim o`z-o`zidan yemas, balki boshqa ko`plab yelementlar qurshovida mavjud bo`ladi. Ayrim masalalarni xal yetishda bizni bu tashqi muxitning barcha yelementlari yemas, balki ushbu masala nukta nazaridan tashqi muxitni tashkil yetuvchi, ko`rib chiqilayottan tizimga biror-bir aloqasi bo`lgan yelementlargina kiritiladi. Tashki muxit — bu ko`rilayotgan tizimga ta`sir ko`rsatuvchi yoki ko`rilayotgan masala sharoitida uning ta`siri ostida bo`lgan, tizimdan tashqaridagi xar qanday tabiat yelementlaridir. Chunki, real sharoitlarda tizimlarning xar biri aloxida yemas, balki boshqalari yonida, bir-biriga bog`lik, xolda ishlaydi. Tizimlarni taxlil va sintez qilish chog`ida alokalarining ikki xil turi ajralib turadi: ichki va tashki aloqa. Tashqi aloqaga yega tizimlar ochiq deb, unga yega yemaslari yesa yopiq aloqa deb ataladi.

Tizimlar tasnifi. Tizimlarni qiyoslash va farqlash, ularning bir-biriga o`xshashlari va farqlilarini ajratish orqali tasniflash amalga oshiriladi.

Tasniflash — bu faqat borlik, modeli va uni turli belgilar, ya`ni, kirish va chiqish jarayonlarining bayoni, ularning kelib chiqishi, boshqaruv turi, boshqaruvning resurslari bilan ta`minlanganligi va xakozo bo`yicha amalga oshirish mumkin. Bizni tizimning kelib chiqishi bo`yicha tasniflash qizistiradi. Tizimni mazkur belgiga ko`ra tasniflash 1.1-rasmda keltirilgan.

Sun`iy tizimlar — bu inson tomonidan yaratilgan tizimlardir.

Tabiiy tizimlar-bu tabiatda yoki jamiyatda inson ishtirokisiz yuzaga kelgan tizimlar.


Aralash tizimlar-ta`biy va sun`iy tizimlarni o`z ichiga oladi.

Yergonomik tizimlar — bu, «mashina — inson- operator» majmui.

Biotexnik tizimlar — tirik organizmlar va texnik qurilmalar kiradigan tizimlardir.

Tashkiliy tizimlar — bu, zaruriy vositalar bilan jixozlangan kishilar jamoasidan tashkil topgan tizimlar sanaladi.

Tashkiliy tizim — boshkarish, shuningdek, tashkiliy tuzilma, maqsadlar, boshqarish samaradorligi va xodimlarni ragbatlantirish qoidalari mezonlari uchun foydalanadigan, xodimlarning yurishturishi va texnik vositalarning ishlatilish tartibini belgilovchi qoidalar yigindisidir.



1.1 – rasm. Tizimlar tasnifi.

Tashkiliy tizimlar ishlab chiqarish vositalaridan foydalanuvchi kishilar jamoasining ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish uchun mo'ljallangan. Oxirgisi ancha muxim xolat xisoblanadi, chunki tashkiliy tizimlar texnik vositalarning o'ziga xosligini, xususan, boshqaruv vositalarini xisobga olishi lozim.

Tizimda boshqaruv Obekti — bu muayyan moddiy zaxiralarga yega va aniq maxsulotni olishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish operatsiyalarini bajaruvchi vazirlik, idora, korxona, sex, ishlab chiqarish, uchastkalar, ijrochilar jamoasi yoki

ayrim shaxslardir. Boshqaruv Obektining faoliyati ishlab chiqarish jarayoni chog`idagi turli xolatlardagi vazifalarni amalga oshirishga buysindirilgan.

Boshkaruv organi Obektni boshkarish uchun tashkiliy tizimdan foydalanuvchi shaxs yoki shaxslar guruxi sanaladi.

Tashkiliy tizimlar avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan bo`lishi mumkin.

Tashkiliy tizimlar bir qator o`ziga xos xususiyatlarga yega. Dastlabki o`ziga xosligi shuki, tizimning asosiy yelementi murakkab, faol tizim boqlgan insondir. Inson yurish-turishi, xulqi jixatlarining amaliy talablarini bayon yetuvchi norasmiy modellarini tuzish juda murakkab, ba`zan yesa iloji yuq. Ayni paytda inson tashkiliy tizimlarda qaror qabul qiluvchi shaxs (QQSh) xisoblanadi.

Tashkiliy tizimlarning ikkinchi o`ziga xosligi ko`p maqsadli ishlash xususiyatidir. Ushbu tizimlar faoliyatining samaradorligi umuman olganda xam uning kichik tizim va yelementlarini tashkil yetuvchilariga ko`plab miqdordagi texnik, iqtisodiy va ijtimoiy ko`rsatkichlar bilan belgilanadi. Samaradorlikni baxolashning ko`pqirraligi ko`pgina o`zaro bog`lik jixatlar bo`yicha boshqarishni tashkillashtish zaruriyatiga olib keladi. Bunda tizimning boshqa yelementlari bilan moddiy va axborot jixatdan o`aro ta`sirini tashkil yetish talab yetiladi.

Uchinchi o`ziga xoslik — tashkiliy tizimlarniig uzluksiz rivojlanishini o`z ichiga oladi, u yangi yextiyojlar paydo bo`lishi, bu yextiyojlarni tashqi va ichki shart-sharoit hamda o`zgarishlar bilan bog`liq xolda qondirish yo`llarini takomillashtirishdan iborat. Oqibatda, Obektlar tarmoqlari doimiy o`zgarishda, uning yelementlari o`rtasida yaggi aloqalar paydo bo`ladi. Shuningdek, xam aloxida Obekt, xam umuman tizim sifatida boshqarish tizimi o`zgaradi.

1.3. Masalasining qo'yilishi

Ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadi “ZiyoNet” tarmog'i doirasida o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron lug'at ishlab chiqishga qaratilgan.

Elektron lug'atni ishlab chiqishda quyidagilar amalga oshirilsin:

1. O'zbekcha – inglizcha lug'at ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilsin va so'zlar kiritilsin;
2. Inglizcha – O'zbekcha lug'at ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilsin va so'zlar kiritilsin;
3. O'zbekcha – ruscha lug'at ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilsin va so'zlar kiritilsin;
4. AJAX texnologiyasida o'zbekcha – inglizcha qidiruv tizimi ishlab chiqilsin;
5. AJAX texnologiyasida inglizcha - o'zbekcha qidiruv tizimi ishlab chiqilsin;
6. AJAX texnologiyasida o'zbekcha – ruscha qidiruv tizimi ishlab chiqilsin;
7. AJAX texnologiyasida ruscha - O'zbekcha qidiruv tizimi ishlab chiqilsin;
8. Ma'lumotlar bazasi sifatida MySQL ishlatilsin

Elektron lug'atni ishlab chiqishda PHP, Javascript senariylar tili, HTML, CSS, rasmlarni qayta ishlash uchun Adobe PhotoShop dasturidan va ma'lumotlar bazasi sifatida MySQLdan foydalanildi.

Lokal server sifatida Denwerdan foydalanildi.

Ma'lumotlar bazasini shakllantirishda Delphi dasturlash tilidan foydalanildi.

Xulosa.

Birinchi bob jamiyatning rivojlanishida dasturiy ta'minot vositalarining o'rni haqida bo'lib , avtomatlashtirilgan tisimlarning sohalarda qo'llanilishi va masalaning qo'yilishi berilgan.

2. WEB SAYT ISHLAB CHIQISH VOSITALARI

2.1 PHP dasturlash tilining rivojlanishi

1994 yili php tilining yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o'zinig saytiga mehmonlar kirishini hisoblash uchun Perl dasturlash tilida maxsus qobiq yozib amalda qo'llagan. Ko'p o'tmay qobiqni ishlash unumdorligi juda past va sekinligi aniqlanganidan so'ng, dasturlarni yangidan "C" tilida yozib chiqishga to'g'ri keladi. Keyin, dastlabki dastur kodlari muallif tarafidan barchaga ko'rish uchun serverga nashr qilingan. Server foydalanuvchilari kodlar bilan qiziqib, uni ishlatish muxlislari ham paydo bo'lgan. Ko'p o'tmay, bu dasturlar alohida loyihaga aylanib, 1995 yilning iyul oyida dasturiy mahsulot PHP (Personal Home Page) nomi bilan birinchi nashri chiqarildi. Imkoniyatlari oddiy va sodda bo'lib: bir necha buyruqlarni tushunadigan kod analizatori(tekshiruvchisi), mehmonlar hisoblagichini, kitobini, chatini yaratish uchun foydali dasturlar to'plamidan iborat bo'lgan.

1996 yil aprel oyida dasturlar jiddiy qayta ishlanganidan so'ng, PHP/FI (Personal Home Page / Forms Interpreter) nomi bilan mahsulotning ikkinchi nashri paydo bo'ldi. Bu mahsulot html-kod ichiga yozilib, html-formalarni qayta ishlab, hozirgi PHP dasturlash tilining tayanch imkoniyatlarini ichiga olgan. PHP/FI kod yozilishi Perl tiliga juda o'xshagan, lekin soddaroq bo'lgan.

1997 yili PHP/FI 2.0 nashri chiqdi. O'sha paytda bu mahsulot bilan dunyo bo'yicha bir necha ming odam foydalanib, taxminan 50 ming domen bo'lib, Internetning 1% ini tashkil qildi.

1997 yilda Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP/FI kodini boshqatdan yozib chiqishdi, chunki eski kod ular ishlatayotgan elektron tijorat tizimlari uchun yaroqsiz edi. Eski kodning mualliflaridan yordam olish uchun ular birlashishni taklif etib, PHP3 nomli loyihani PHP/FI -ni rasmiy vorisi deb e'lon qilishdi. Yangi loyiha uyushgandan keyin PHP/FI loyihasi ishlab chiqarilishi to'xtatilgan.

PHP 3.0 ning eng kuchli taraflaridan biri uning kengaytirala olinadigan yadrosi(tizimning boshqaruv qismi) bo'lib, bundan tashqari, ma'lumot

jamg'armalar bilan, turli protokollar va interfeyslar bilan birgalikda ishlash keng imkoniyatlari yaratildi. Muvaffaqiyatga erishishga ancha ahamiyatli fakt bu yangi tilni boyligi va ob'ektlarga mo'ljallangan dasturlashni qo'llay olishi. Yangi loyiha bilan birga nafaqat tilni tashqi, ichki tuzulishi o'zgardi, balki o'zini nomi ham. Endi PHP qisqartmasi "PHP: Hypertext Preprocessor" ma'nosini anglatishi bildirildi.

1998 yilning oxirida PHP foydalanuvchilarning soni o'n minglardan oshdi. Yuz mingdan oshiq veb-saytlar bu tilni qo'llashini e'lon qilishdi. Taxminan Internetning 10% serverlarida PHP 3.0 o'rnatilgan edi.

1998 yilning iyun oyda PHP3 to'qqiz oy ommaviy tekshiruvidan keyin rasman e'lon qilindi. Shu yilning qishida Endi Gutmans va Ziv Suraski PHP yadrosini qaytadan ishlab chiqarishni boshlashgan. Ularning asosiy vazifasi PHP tiziminig unumdorligini ko'tarish va kodning modullarini yaxshilash edi.

1999 yilning o'rtalarida birinchi marta taqdim qilingan yangi yadro "Zend Engine" deb nomlangan ("Zend": mualliflar "Zeev" va "Andi" ismlardan tashkil topgan). Uni asosida tuzilgan yangi til PHP4 2000 yilning may oyida rasman chiqarilgan. Unumdorlik yaxshilangandan tashqari, PHP 4.0 muhim yangiliklarga ega bo'lib, sessiyalarni qo'llash, buferli chiqarish, kiritilgan ma'lumotlarni havfsiz qayta ishlash va yana bir necha yangi til tuzuvchilarini paydo bo'lishidan iborat.

Hozirgi kunlarda "Zend Engine" qayta yaxshilanib PHP5 tili ishlab chiqarildi. Asosiy o'zgarishlar ob'ektlarga mo'ljallangan dasturlash modelida bo'lib, tilning imkoniyatlari yanada kengaytirdi.

Hozirda PHP tilini yuz minglab dasturchilar ishatib, bir necha million saytlar yaratilib, Internetning 20% domenlarini tashkil etmoqda.

PHP 1.0 1995 yil, 8 iyun Rasmiy nomi "Personal Home Page Tools (PHP Tools)". Bu "PHP" qisqartmani birinchi marta ishlatilinishi.

PHP 2.0 1996 yil, 16 aprel Veb sahifalarni "Tez va oson ishlaydigan qurol" deb e'lon qilingan mahsulot.

PHP 3.0 1998 yil, 6 iyun Bir kishi ishlab chiqaruvchi loyihadan ko'p ishlab chiqaruvchilar loyihasiga aylandi. Endi Gutmans va Ziv Suraski kodni boshqatdan yozib chiqishdi.

PHP 4.0.0 2000 yil, 22 may Yangi yadro “Zend Engine” asosida tuzilgan

PHP 4.1.0 2001 yil, 10 dekabr Til konstruktsiyasiga superglobal imkoniyatlar qoshilgan (\$_GET, \$_POST, \$_SESSION, etc.)

PHP 4.2.0 2002 yil, 22 aprel Xavfsizlikni oshirish maqsadida tizimning sozlash “register_globals” parametri o'chirilgan.

PHP 4.3.0 2002 yil, 27 dekabr “CGI” (Common Gateway Interface)ga qo'shimcha “CLI” (command line interpreter) texnologiyasi kiritilgan.

PHP 4.4.0 2005 yil, 11 iyul phpize va php-config skriptlari uchun qo'llanma varaqlari qo'shilgan.

PHP 5.0.0 2004 yil, 13 iyul Zend Engine II – yangi ob'ekt modeli kiritilgan.

PHP 5.1.0 2005 yil, 24 noyabr PHP Engine ishlash unumdorligi yaxshilangan.

PHP 5.2.0 2006 yil, 2 noyabr Kengaytiradigan filtr modullarining php tizimida ishlatish imkoniyatlari ochiq holati o'rnatilgan (default).

2.2 PHP dasturlash tilining afzalliklari

PHPning vazifasi serverni ma'lumotlar ombori bilan bog'lash (Apache+PHP+MySQL). PHPni o'rganishdan avval HTMLni bilishingiz kerak. PHP ishlashi uchun birinchi navbatda server dasturi o'rnatilgan bo'lishi kerak. Usiz PHP operatsiyalarini bajarib bo'lmaydi. Ular Apache, Denver. Apache'ni o'z kompyuteringizga o'rnatasiz.

PHP operatsiyalari sizga ko'rinmaydi. Siz faqat uning natijasini HTML-kod ko'rinishida olasiz. Dasturda xatolik yuz beradigan bo'lsa, qaysi qatordagiligini ham server ko'rsatadi. PHP-kodlarini oddiy bloknotga ham yozsa bo'ladi. Ammo PHP-tahrirlovchilarini ishlatgan ma'qulroq. Masalan, men Zend dasturini ishlataman. U PHP-koddagi xatoliklarni ko'rsatib turadi. Keyingi kerak bo'ladigan

narsa daftar va ruchka. Agar yozib bormasangiz vaqt ketkazganingiz qoladi. Xullas, o'rganishni boshlaymiz:

<?

Ular orasida php-kodlari yoziladi. Birinchi misol:

```
echo("COMSOFT");  
print("COMSOFT");  
?>
```

Uni *.php ko'rinishida saqlaymiz (* - siz beradigan nom). Saqlangan faylni ...WebServers\home\localhost\www papkasiga tashlaymiz. (Bu papkalar Apache serverni o'rnatganingizda chiqadi. ... - Server o'rnatilgan joy). So'ngra brouzerni ochib manzillar paneliga localhost/*.php deb yozamiz (* - siz faylga bergan nom). Brouzerda nima yozuv chiqdi? COMSOFTCOMSOFT mi? Shunday bo'lsa hammasi joyida. "echo" va "print" nima ish bajarishini bilib olgan bo'lsangiz kerak. Ikkisi ham yozuvni ekranga chiqaradi. Ikkinchi misol - uni takomillashtiramiz:

```
echo("COMSOFT ");  
print("COMSOFT\nFOREVER");  
?>
```

ESLATMA: Har safar kodni o'zgartirib saqlaganingizdan keyin, brouzerni ham yangilab turing. Buning uchun CTRL+F5 yoki "Obnovit" tugmasini bosing.

echo yoki print ichida HTML-kodlarini ishlatish mumkin. Faqat HTML-kodida yoziladigan PHPda yoki qilib yoziladi. Shunga o'xshash so'zlarni qo'shtirnoq ichida yoziladigani bo'lsa \" qilib yoziladi. Bo'lmasa xatolik hisoblanadi. Bundan tashqari yozuv ichida ' belgisini `(Yo harfi bilan birga, 1 tugmasi yonida ) belgisiga almashtirish kerak. Masalan O'quvchi so'zini O`quvchi qilib yoziladi. \n belgisi esa probel vazifasini bajaradi. (Huddi HTMLdagi kabi).

Izoh qo'shish:

Izoh qo'shish ba'zi holatlarda kod esdan chiqib qoladigan paytda, yoki kod vaqtincha kerak bo'lmagan holatda kerak bo'ladi. Uchinchi misol:

```
//echo("COMSOFT ");
```

```
print("COMSOFT\nFOREVER");
```

```
?>
```

Sizda faqat COMSOFT FOREVER yozuvi chiqadi. Sababi // dan keyin yozilgan kodni yo'q deb biladi. Zend dasturini ishlatayotgan bo'lsangiz, u kulrang rangda chiqib qoladi.

```
# belgisini // o'rniga ishlatsak ham bo'ladi. To'rtinchi misol:
```

```
/*echo("COMSOFT ");
```

```
print("COMSOFT\nFOREVER"); */
```

```
?>
```

Hech narsa chiqmaydi. Sababi /* o'zidan keyingi barcha kodlarni */ gacha izohga qo'shib qo'yadi.

PHP web dasturlash tilining funksiya va ob'yektlari/

O'zgaruvchilar hamma dasturlash tilining asosidir. Bularga O'zgarmas sonlar, belgilar va boshqalar kiradi.

Misol qilib sonlarni olaylik. Ular butun sonlar, qoldikli sonlar bo'lishi mumkindir va yana bularni orasiga ikkilik, sakizlik, o'n oltilik sanoq sistemasidagi sonlar ham kiradi. Yoki belgilardan &, %, /, \$, # va yana harflar ham kiradi.

Ekranga chiqarganingizda single_list tamoman bir biri bilan birga va \n belgisi bilan chiqadi, double_list esa bu belgilersiz bo'sh joy bilan birga chiqadi.

Massivlar

Massiv: bu bir qancha o'zgaruvchilarni birligidir. yozilishi: \$ismi[raqami]

misol:

```
$rang[0]="ko'k";
```

```
$rang [1]="qizil";
```

```
$rang [2]="yashil";
```

Agarda siz print \$rang[1] desangiz unda oynangizga "qizil" chiqadi. Yoki array() komandasini ishlatishingiz mumkin.

misol:

```
$kun=array("juma", "shanba", "yakshanba");
```

Agarda sizga masivlarni so'z bilan ajratish qilay bo'lsa unda PHP buni ham qabul qiladi. misol:

```
$maktab["ismi"]="Cho'lpon";
```

```
$maktab["raqami"]="258";
```

```
$maktab["shahri"]="Toshkent";
```

Ichma ich massivlar ham yoza olasiz.

yozilishi: \$ismi[raqami1][raqami2]..[raqamiN];

misol:

```
$shahmat[0][0]="Peshka";
```

```
$shahmat[0][1]="Tora";
```

```
$shahmat[1][1]="Ot";
```

Mantiqiy funksiyalar

TRUE, FALSE

Solishtirish funksiyalariga "if else" funksiyasidir. Bunday solishtirishda sizda TRUE (Rost) yoki FALSE (yolg'on) chiqadi. keling misol bilan ko'rsak.

```
$flag=TRUE;
```

```
if ($flag==TRUE):
```

```
print "The flag is true!";
```

```
else:
```

```
print "The flag is false!";
```

```
endif;
```

Agarda flag o'zgaruvchimiz rost bo'lsa unda ekranimizga "The flag is true!" yoziladi. Agarda yolg'on bo'lsa unda ekranimizga "The flag is false!" yoziladi.

Nomlash

Ob'yektlarni, funksiyalarni, o'zgaruvchilarni nomlash uchun siz hamma belgilardan (lotincha) ishlatishingiz mumkin. Faqatgina boshlanishi sonidan va yordamchi belgilardan bo'lishi kerak emas. Va ichida yordamchi belgilari bo'lmasligi kerak.

O'zgaruvchilarni tanitish

Yuqorida o'zgaruvchilarga qandaydir so'zni, yoki gapni tanitish, ya'ni berishni ko'rib chiqdik.

Lekin yana bir bor qaytarib o'tish yana ham ko'proq o'rganishingizga, agarda tushunmagan bo'lsangiz tushunib yetishingizga yordam beradi.

So'z yoki gaplarni quyidagicha qilib tanitamiz:

```
$sentence="Salom hayot!";
```

Sonlarni esa:

```
$price=43.22;
```

```
$ogirligi=185;
```

Ichki o'zgaruvchi

Ichki (lokal) o'zgaruvchi

Ichki (lokal) o'zgaruvchi deb funksiyaning ichida tanitilgan o'zgaruvchiga aytiladi.

Global o'zgaruvchi

Global, ya'ni umumiy o'zgaruvchanlar butun sahifamiz bo'yicha hamma joyda ishlatishingiz mumkindir. Yuqoridagi misolda $x=4$ bu bizning global o'zgaruvchimizdir. Agarda uni biz funksiya ichida ishlatmoqchi bo'lsak unda:

```
$sonlar==15;  
function arifmet() {  
    GLOBAL $sonlar  
    $sonlar=$sonlar+10;  
    print "Bizning son $sonlar";  
}  
arifmet();
```

Static o'zgaruvchi

Static: Bu ichki o'zgaruvchi bo'lib, ammo funksiyaning ichidan chiqqaningizdan keyin ham o'z qiymatini saqlab qoladi, va shu funksiya keyingi bor ishlatganingizda o'z qiymati bilan ishlaydi. Misolda ko'raylik:

```
function keep_track(){  
    STATIC $count=0;
```

```

$count=$count + 10;
print $count;
print "<BR>";
}
keep_track();
keep_track();
keep_track();

```

Agarda siz shu kodni ishlatsangiz unda sizning ekraningizda 10 20 30 sonlari yoziladi. Ko'rib turganingizdek har gal yangittan ishlatganingizda count o'z qiymatini saqlab qoldi.

Bir turdan ikkinchi turga o'tish

Agarda siz qandaydir son hoh butun son hoh qoldiqli bir turdan ikkinchisiga o'tkazish niyatingiz bo'lsa unda bu dars sizga yordam beradi.

O'zgarmaslar

Oldindan aniqlab berilgan son yoki sozlar tarkibidir.

Misol uchun agarda biz PI so'ziga 3.14 sonini bermiqchi bo'lsak va bu son hech ham o'zgarmasligini bilsak unda biz o'zgarmasni yozishimiz kerak (constant)

misol:

```

define("PI", "3.14");
print "PI soni bu";
print PI;

```

Shu yerda bazi bir funksiyalarni ham ko'rib chiqaylik.

print() - Bu oynaga ma'lumot yuborishdir.

sprintf() - Bu qandaydir ma'lumotni formatlash(kerakli shaklga kiritish) uchun va uni qandaydir o'zgaruvchiga berish uchun ishlatiladi.

printf() - qandaydir ma'lumotni formatlab oynaga yuborish uchun ishlatiladi.

misol:

<?

```

$format="""The are %s monkeys in the $d";
printf($format, $num, $location);

```

?>

agarda biz \$num'ga 3 bersak va \$location'ga “tree” bersak unda quyidagi oynamizga chiqadi. “The are 3 monkeys in the tree” bo'ladi.

yoki

<?

```
$money1=68.75;
```

```
$money2=54.35;
```

```
$money=$money1+$money2;
```

```
$formatted=sprintf(“%01.2f”, $money);
```

?>

shunda \$formatted=123.00 bo'ladi, agarda biz sprintf siz oynaga chiqarganimizda unda 123 chiqgan bo'lardi.

Formatlashga kiritish turlari.

%-protsent belgisi.

b- son, ikkilik sanoq sistemasida (0 va 1)

c- son, songa mos keladigan ASCII belgilarini chiqaradi. (65=A belgisi)

d- son, belgili onlik sanoq sistemasi (+10 yoki -10) u-son, belgilanmangan onlik sanoq sistemasi (10, 5) f- qoldikli son, qoldikli son shaklida (1.25, 20.36)

o- son, sakizlik sanoq sistemasida (23, 65)

s- belgi, ya'ni harflar yoki boshqa belgilar

x- son, o'n oltilik sanoq sistemasi (harflari kichkinada yoziladi) (12ab, d23c)

X- son, o'n oltilik sanoq sistemasi (harflari kattada yoziladi) (12AB, D23C) Mana shular bilan siz foydalanib ma'lumotingizni formatlashingiz mumkindir.

round()

Bu funksiyamiz qandaydir qoldikli sonni yahlitlash uchun ishlatiladi.

```
float round(float son [,nuqtadan_keyin])
```

bu yerda son bu biz yahlitlamoqchi bo'lgan son, nuqtadan_keyin bu nuqtadan so'ng qancha songacha yahlitlashni bildiradi. misol:

<?

```
$son=12.3256;
```

```
echo $round($son, 3);  
echo $round($son, 2);  
echo $round($son, 1);  
?>
```

shunda bizning oynaga quyidagilar chiqadi:

12.326

12.33

12.3

Bu yerda ko'rganingizdek 5 va undan yuqori bo'lsa unda oldindigi songa 1 qo'shadi agarda 5 dan kam bo'lsa unda faqatgina olib tashlaydi xolos.

ceil()/floor()

ceil() bu keyingi songa yaxlitlaydi (12.3 bo'lsa unda 13 bo'ladi)

floor() bu bitta past songa yaxlitlaydi (12.6 bo'lsa unda 12 bo'ladi)

Ya'ni bu yerda qoldiqqa qaralmaydi faqatgina butun qismini oladi. Demak bitta yuqorisini olish uchun ceil ishlatiladi va bitta pastgi sonni olish uchun esa floor funksiyasi ishlatiladi.

abs()

Bu funksiya sonni oldidagi belgisiga olib tashlaydi, ya'ni agarda sizda manfiy son bo'lsa unda uni

musbatga o'giradi.

misol:

<?

```
echo abs(4.2);
```

// oynaga 4.2 chiqadi

```
echo abs(4.2); // oynaga 4.2 chiqadi
```

```
echo abs(5); // oynaga 5 chiqadi
```

?>

rand()/srand()

Qandaydir tasodifiy son olish uchun shu ikki funksiya ishlatiladi.

```
srand(((double)microtime()*1000000))
```

```
$randomnumber=rand()
```

Mana shu ko'dni ishlatsangiz sizda haqiqatdan ham tasodifiy son bo'ladi. Agarda siz ikki son orasida son olmoqchi bo'lsangiz unda rand(0, 10) kabi ishlatishingiz mumkindir, shunda sizda 0 va 10 orasida qandaydir son chiqadi.

Sikl operatorlari

IF

If operatori, bu bizning tekshirish operatorimizdir.

Yozilishi:

```
if (tekshirish) {
```

```
  yozuvimiz
```

```
}
```

yoki

```
if (tekshirish) {
```

```
  yozuvimiz
```

```
}
```

```
else {
```

```
  yozuvimiz
```

```
}
```

Misol:

```
if($a==$b) {
```

```
  print “\ $a teng ekan \ $b ga”;
```

```
}
```

```
else {
```

```
  print “teng emas ekan”;
```

```
}
```

elseif

Bu if operatorimizga yana bitta tekshirishni qo'shib beradi.

```
if (tekshirish) {
```

```
  yozuv
```

```
}
```

```
elseif (tekshirish) {  
yozuv  
}
```

Misolda ko'raylik.

```
if ($a<200) {  
print "Sonimiz 200 sonidan kichik ekan";  
}  
elseif ($a<500) {  
print "Sonimiz 200 dan katta, lekin 500 dan kichik ekan";  
}  
else {  
print "Sonimiz 500 dan ham katta ekan";  
}  
while
```

Bu operatorimiz qandaydir ishni bir necha marotaba qayta qayta qilish uchun juda ham qulaydir.

```
while (tekshirish):  
yozuv  
endwhile;  
for
```

Bu operatorimiz biz uchun qandaydir programma kodimizni qanchadir marotaba qayta qayta ishlatib beradi.

```
for(tanitish:tekshiruv; o'zgarishi){  
yozuv  
}  
break;
```

Bu qo'shimcha operatorimiz qandaydir ishni bo'lib qaytadan chiqib ketish uchundir.

Ya'ni misolga qarang:

```
$x=5;
```

```

for (;$x+=2) {
print "$x ";
if ($x==15):
break;
endif;
}

```

Shunda for operatorimiz \$x ning 15 soni bo'lganigacha ishlaydi, for operatorini ishini esa break operatori bo'ladi.

foreach

Massivlar bilan ishlash uchun for operatorining qulaylashtirilganidir.

```

foreach (massiv as $element) {
yozuv
}
yoki
foreach (massiv as $kalit=>$element){
yozuv
}

```

Huddi if operatori kabidir, lekin undan farqi, birdaniga bir qancha tekshirishlar tekshiriladi.

continue

Agarda for, yoki boshqa davomli operatorlaringizni ichida yozgan kodingizni qandaydir qismidan so'ng qolganlarini bajarilmasdan yana boshidan boshlanishini hohlasangiz unda continue operatorini ishlatasiz.

2.3. Web sayt stillari

Sayt yaratishda va unga professional tashqi ko'rinish berishda, birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Agar sayt

yaratishdan oldinroq uning stili haqida bosh qotirsangiz, kelajakda uchrashi mumkin bo'lgan ko'plab muammolardan holi bo'lishingiz mumkin.

Agar sizda sayt tayyor bo'lsa, u holda unga stillar jadvalini qo'shish mumkin. Agar siz saytingiz uchun yagona stilni yaratgan bo'lsangiz har safar ga o'xshagan elementlarni ishlatish nima uchun kerak? Undan tashqari saytni tahrirlashga to'g'ri kelsa saytning tanasini tashkil qiluvchi o'nlab web-sahifalarining har birini emas, bitta faylda saqlanuvchi stillar faylini tahrirlash juda ham oson bo'ladi.

Ishni bazaviy saytni yaratishdan boshlaymiz. Tasavvur qilaylik u yaratilgan. Bizning maqsadimiz uni stillar jadvali yordamida o'zgartirish. Bazaviy saytda biz kelajakda ishlatishimiz mumkin bo'lgan hamma elementlarni ishlatishimiz kerak. Chunki biz yagona stilni yaratishimiz uchun hamma elementlar stilini o'zimiz xoxlagan ko'rinishga keltirishimiz kerak.

Bizning maqsadimiz kam mehnat sarflab bir ko'rinishli sayt yaratishga erishishdir. Keyin, masalan stillar faylidagi birinchi darajali sarlavhani stilini o'zgartirib, butun saytdagi hamma birinchi darajali sarlavhalar o'zgarishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Hamma o'zgarishlar avtomatik amalga oshiriladi.

Quyidagi kodni qaraylik:

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title>Sarlavha</title>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<h1> <font face="Arial, Helvetica">9-Ma'ruza. Sayt stillari: ishlab  
chiqish, imkoniyat berish, globallashtirish.</font></h1>
```

```
<h2> <font face="Courier New">A) Sayt stillari. <br />
```

```
B) Stillar jadvali va ruxsat.<br />
```

```
C) Globallashtirish. </font></h2>
```

```
<h1 align="center">.:A.:</h1>
```

`<p><font face="Times, Timew New Roman" size="3pt">` Stillar jadvali haqida tanishgan edik, lekin uni oxirigacha tadqiq etmagandik. Agar siz sayt yaratmoqchi va unga professional tashqi ko`rinish bermoqchi bo`lsangiz, birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chiqish kerak bo`ladi. Agar siz sayt yaratishdan oldinroq uning stili haqida bosh qotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin bo`lgan ko`plab muammolardan holi bo`lishingiz mumkin. `</p>`

`</body>`

`</html>`

Web-sahifalar uchun stillar jadvalini yatarish – elementlarning qaysi ko`rinishi yaxshiroq va ularga qanday ko`rinish chiroyliroq chiqishini tasavvur qilib unga kod yozishdir. Har bir element uchun bir nechtadan stillar yaratish mumkin. Masalan, `<p>` elementining o`ziga 5-6 xil stillar berish va undan web-sahifalarda foydalanish mumkin. Agar biz web-sahifalarning sodda bo`lishini istasak, u holda stillar jadvali o`z-o`zidan murakkablashadi.

Endi yuqoridagi misolning stillarini stillar javdali orqali yozamiz:

`hr {width: 75%}`

`h1 {font-family: Arial, Helvetica}`

`h2 {font-family: Courier New}`

`p {font-family: Times, Times New Roman;`

`font-size: 12pt;}`

Ko`rinib turibdiki, stillarni o`qish va tushunish osonroq. Stillar jadvalini saqlab (file_name.css) web sahifa bilan bog`lagandan so`ng web-sahifaning kodi quyidagi ko`rinishga keldi:

`<html>`

`<head>`

`<title>mavzu</title>`

`<link rel="stylesheet" href="d:/1.css" />`

`</head>`

`<body>`

`<hr />`

<h1> Ma'ruza. Sayt stillari: ishlab chiqish, imkoniyat berish, globallashtirish.</h1>

<h2> A) Сайт стиллари.

B) Stillar jadvali va ruxsat.

C) Globallashtirish. </h2>

<hr />

<h1 align="center">.:A.:</h1>

<p> Stillar jadvali haqida 6-mavzuda tanishgan edik, lekin uni oxirigacha tadqiq etmagandik. Agar siz sayt yaratmoqchi va unga professional tashqi ko`rinish bermochi bo'lsangiz, birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Agar siz sayt yaratishdan oldinroq uning stili haqida bosh qotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin bo'lgan ko'plab muammolardar holi bo'lishingiz mumkin.</p>

</body>

</html>

Natija birinchi variantdagi kabi bo'lib, hech narsa o'zgarmaganligini ko'ramiz. Faqatgina yozgan kod toza bo'ldi xolos. Stillar jadvalining afzalligi shundaki, yuqoridagi stil butun web-sahifaga qo'llanilishi mumkin.

CSS2 standatining ba'zi bir elementlari:

Xususiylati	Qiymati	Vazifasi
Azimuth	Left, center-left, center, center-right, right yoki burchak (-3600 dan to 3600)	Tinglovchi joylashgan joyga nisbatan burchakni ifodalaydi.
Cue-after	url	Matn o'qilganidan keyin berilgan URL adresdagi tovushli faylni ishga tushiradi
Cue before	url	Matn o'qilganiga qadar berilgan URL adresdagi tovushli faylni

		ishga tushiradi
Elevation	Below, level, above, yoki burchak (-3600 dan to 3600)	Tovush chiqaruvchi qurilma joylashgan vertikal burchakni ifodalaydi
Pause-after	Sekundlar yoki millisekundlar	Element «gapirib» bo'lgandan keyingi pauza
Pause-before	Sekundlar yoki millisekundlar	Element «gapirguncha» bo'lgan pauza
Pause	Sekundlar yoki millisekundlar	Element «gapirguncha» va «gapirib» bo'lgandan keyingi pauza
Pitch	Low, medium, high yoki chastota (Гц)	Tovush chiqish balandligi
Pitch-range	0, 50 yoki boshqa sonli qiymat	Chastota kattaligi: 0–monoton, 50 – normal
Play-during	Url	Fonda yangrovchi tovush adresi
Speak	None, normal, spell-out	Gapirish turi
Speak-numeral	Digits, continuous	Sonlarni aytish turi: ketma ket sifralar yoki hamma sonlar birdaniga
Speak-punctuation	None, code	“code” shuni bildiradiki, hamma tinish belgilarini aytish kerak (nuqta, vergul, ...)
Speak-rate	Slow, medium, fast, bir minutdagi so'zlar soni	Gapirish tezligi
Voice-family	Male, female, Zervox, Princess, child	«Kimning» ovozi bilan gapirish (bu holatda shriftlar kabi tovushlar ham kompyuterga o'rnatilgan bo'lishi kerak.)

Volume	Silent, soft, medium, loud	Tovush balandligi
--------	----------------------------	-------------------

Bu xususiyatlar boshqalari kabi stillar aniqlanadigan joyda ifodalanishi mumkin. Masalan:

